

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ORFOGRAFIK VA NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH XARAKTERIDAGI TA’LIMIY DIKTANTLARNI O‘TKAZISH YO‘LLARI

Jumaniyozova Muhabbat Xo’sinovna

UrDU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Yaqubova Nodira Ruslanovna

UrDU Ta’lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi

(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-kurs magistri,

Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchi-stajyori

Annotatsiya. Mazkur maqolada Boshlang‘ich sinflarda orfografik va nazariy bilimlarni mustahkamlash xarakteridagi ta’limiy diktantlarni o‘tkazish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Unda ta’limiy diktantning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imloviy savodxonlikni shakllantirishdagi o‘rni aks ettiriladi. Ta’limiy diktantning ko‘rish diktanti turi va uni tashkil qilishning metodik jihatlari ko‘rsatib beriladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются способы проведения учебных диктантов в начальных классах для закрепления орфографических и теоретических знаний. Отражена роль учебного диктанта в формировании орфографической грамотности у учащихся начальной школы. Показаны вид наглядного диктанта учебного диктанта и методические аспекты его организации.

Annotation. This article discusses the ways of conducting educational dictations in the primary grades to strengthen orthographic and theoretical knowledge. It reflects the role of educational dictation in the formation of spelling literacy in elementary school students. The type of visual dictation of educational dictation and methodological aspects of its organization are shown.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili va o‘qish savodxonligi, imlo, imloviy savodxonlik, diktant, nazariy bilim, ko‘rish diktanti, eshitish diktanti, imlo qoidasi.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык и грамотность чтения, правописание, орфографическая грамотность, диктант, теоретические знания, визуальный диктант, слуховой диктант, орфографическое правило.

Key words: elementary education, mother tongue and reading literacy, spelling, spelling literacy, dictation, theoretical knowledge, visual dictation, auditory dictation, spelling rule.

Til ta’limida diktantlar o‘quvchilarning imloviy malakalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini amalda tadbiq etish, yozma nutqni to‘g‘ri rivojlantirish, shuningdek, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘tkaziladi.



Metodikaning yozma ishlarni o‘tkazish sohasida ham innovatsiyalar sezilarli darajada. Diktantlarning an’anaviy turlari bilan baravar yangi turlari kirib kelmoqda.

Quyidagi jadvalda ta’limiy diktantlarning tipi va turlari aks ettirilgan:

1-jadval

Ta’limiy diktantlarning o‘tkazilish maqsadiga ko‘ra turlari		
Orfografik xarakterdagи ta’limiy diktantlar	Nazariy bilimlarni mustahkamlash xarakteridagi ta’limiy diktantlar	Nutq o‘sirish xarakteridagi ta’limiy diktantlar
Ko‘rvuv diktant	Topshiriqli diktant	Ijodiy diktant
Eshituv diktant	Saylanma diktant	O‘z diktant
Izohli diktant	Test diktant	Erkin diktant
Suhbat diktant	Misol diktant	Tez diktant
Lug‘at diktant		
Videodiktant		
Rasm diktant		
Chalg‘itma diktant		

Jadvalda ko‘rsatilgan diktant turlarining aksariyati (ko‘rvuv, eshituv, izohli, suhbat, lug‘at, topshiriqli, saylanma, ijodiy, o‘z, erkin diktantlar) ta’lim tizimida tarixan foydalanilib kelingan bo‘lsa, videodiktant, rasm diktant, chalg‘itma diktant, test diktant, misol diktant, tez diktant kabilar yangilik sifatida tatbiq qilinmoqda. Rus tili o‘qituvchilari faoliyatida esa diktantlarni test bilan integratsiyalash tajribasini ko‘rishimiz mumkin. Diktantlar ayniqsa ta’limiy diktantlar grammatik va imlo mashqlari vazifasini bajaradi, ya’ni o‘quvchilarning til ta’limida nazariy bilimlarni amalda qo‘llashdagi ko‘nikma va malakalarini baholaydi. O.V.Gordeyenko nuqtayi nazaridan yondashib test atamasining ham o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini aniqlash va baholash sifatidagi diagnostika metodi ekanligini e’tiborga olib, rus tilini o‘qitish metodikasida uni zamonaviy diktantlarni o‘tkazish uchun foydalanishni tavsiya qilayotganligini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ingliz tilini o‘qitishda samarali qo‘llanilayotgan diktant turlari, nostandart yondashuv ham diqqatga sazovor. Dictogloss (sharhli diktant), supported dictation (tayanch so‘zli diktant), interaktiv lug‘at diktant, grammatik transformatsiyalangan diktant, bo‘sh o‘rinli diktant, o‘zaro diktant (diktokomp), grammatik diktogloss, mavzuiy diktogloss, diktogloss –yo‘riqnomalik kabilalar ham innovatsiyalar sifatida 90-yillardan buyon foydalanilmoqda.

Walking Dictation, Picture Dictation, Shadow Dictation, Song Dictation, Card Dictation, Spelling Dictation, Running dictation¹⁶ kabi diktant turlari ham nafaqat ingliz tilini o‘qitish, balki o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish jarayoniga tatbiq qiinsa yaxshi natijalarga erishish mumkin.



Biz quyida 1-2-3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” hamda 4-sinf “Ona tili” darslarida qo‘llaniladigan ayrim ta’limiy diktant turlari va ularni samarali tashkil qilish yo‘llari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi”ning mashq daftari o‘quvchilarining til ta’limida katta o‘rin tutadi. Bu sinfda o‘quvchilarni diktant yozishga o‘rgatish o‘qituvchidan alohida e’tibor talab qiladi. Diktant yozishga tayyorgarlik ko‘rish o‘quvchilarda ma’lum psixologik holatni yuzaga keitiradi. Ular o‘zlarida bu ishga kirishish ruhini paydo qilib, daftar sahifasini ochadilar. Doskadan sana va matn sarlavhasini ko‘chirib yozadilar. So‘ngra diqqat-e’tibor bilan matnni tinglaydilar.

O‘qituvchi o‘rtacha balandlikdagi ovoz bilan matndagi so‘zlarni dona-dona qilib o‘qiydi. Bolalar bilan matnni tahlil qiladi. So‘ng o‘quvchilarga: -Endi ko‘zlariningizni yuming va ichingizda: “Men diktantni to‘g‘ri va chiroyli yozaman, yaxshi baho olaman” deb ayting, deya ruhlantiradi va diktant yozishga tayyorlaydi.

Ma’lumki, Milliy o‘quv dasturida o‘quv materiallari vositasida o‘zlashtiriladigan bilim va malakalar quydagilar ham kiritilgan:

- tilning milliy tabiatni, ijtimoiy hodisa ekanligi, uning qurilishi, vazifalari va taraqqiyoti to‘g‘risidagi zarur bilimlarni egallash;
- nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o‘qish, so‘zlash, yozish) yaxlit o‘zlashtirish, muloqotning barcha sohalarida nutq malakalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilish;
- og‘zaki va yozma nutq savodxonligiga erishish va h.k.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarda imloviy savodxonlikni shakllantirishdagi og‘riqli masalalardan biri x va h harflarining yozma nutqda qo‘llanilishidir.

Ta’limiy diktantning bu tipi yordami bilan avvalgi darslarda o‘tilgan orfografik-grammatik mavzu mustahkamlanadi, biror qoidaning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish darajasi sinab ko‘riladi, bilimi aniqlanadi, ulardagи kamchiliklar va ularning yuzaga kelish sabablari o‘rganiladi.

Bu tipdagi ta’limiy diktantlarda ham o‘quvchilar yozuvidagi orfografik nuqsonlar, ularning xarakteri belgilanadi, bu xatoni tuzatish uchun turli choralar izlab topiladi, uni bartaraf qilishga kirishiladi. Shularga binoan ta’limiy diktantning bu tipi o‘z oldiga uch maqsadni qo‘yadi:

- a)o‘rganilgan qoidalarni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash;
- b)o‘rganilgan qoidani o‘quvchilar yozuvga qay holda boglay olganliklarini aniqlash;
- d)o‘quvchilar yozuvidagi orfografik-grammatik xatolarni anyqlab, ularni tugatish choralarini izlash.

Ba’zi o‘quvchilar grammatik qoidani yaxshi tushunib oladilar, bu qoidani og‘zaki izohlab bera oladilar, biroq yozuvda shu qoidaga amal qilmay, xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Ta'limiylar xarakterdagi saylanma diktant o'tkazish uchun kichikroq hajmda matn tanlanadi. Diktantni yozdirishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga bu diktantning asosiy maqsadi, o'quvchilarning vazifalari, qaysi mavzuga oid so'zlarni terib olib yozishlarini batafsil tushuntiradi, so'ng matnni o'qib beradi, o'quvchilar matn tarkibidagi kerakli so'zlarni ajratib olib yozadilar. Diktantdan so'ng o'quvchilar yozganlarini navbat bilan o'qiydilar va sinfda umumiy muhokama qiladilar.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev A. Diktant metodikasi.- Toshkent, "O'qituvchi", 1979.
2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S., Bekmurodova G., G'ozixo'jayeva G. Diktantlar to'plami. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun). - Toshkent: "Niso Poligraf", 2017.
3. Jumayeva S. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishning ayrim yo'llari// "Ona tili ta'limidagi islohotlar: vazifalar, yechimlar va muammolar" Respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari.- Qarshi, 2015, 70-73-betlar.
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik. 1-2-qism. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 2-sinfi uchun darslik. 1-2-qism. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.